

## AYOLLAR HUQUQINI HIMOYA QILISH

*Ilhomova Dildora Ulug'bek qizi**O'zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi Universiteti**“Maxsus Fakultet” Yurisprudensiya 1-bosqich talabasi el-pochta:**dildorailhomova1@gmail.com**Tel: +998 90-399-68-02*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ayollar huquqlarini himoya qilishning xalqaro va milliy huquqiy asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Unda ayollar huquqlarining tarixiy shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan xalqaro hujjatlar, xususan, xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiya (CEDAW)ning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligida ayollar huquqlarini ta'minlashga qaratilgan normativ-huquqiy asoslar, xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish mexanizmlari hamda himoya orderi institutining huquqiy mohiyati tahlil etilgan. Tadqiqot natijasida ayollar huquqlarini himoya qilishda xalqaro standartlar va milliy huquqiy tizim o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik muhim ahamiyat kasb etishi asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** ayollar huquqlari, gender tengligi, xalqaro huquq, CEDAW konvensiyasi, himoya orderi, milliy qonunchilik, inson huquqlari.

## ЗАЩИТА ПРАВ ЖЕНЩИН

**Аннотация:** В данной статье проводится научный анализ международно-правовых и национальных основ защиты прав женщин. В работе рассматриваются исторические этапы формирования и развития прав женщин, а также значение международных документов, принятых Организацией Объединённых Наций, в частности Конвенции о ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин (CEDAW). Кроме того, анализируются нормативно-правовые основы обеспечения прав женщин в национальном законодательстве Республики Узбекистан, механизмы защиты женщин от притеснений и насилия, а также правовая сущность института охранного ордера. В результате исследования обосновывается важность взаимосвязи международных стандартов и национальной правовой системы в обеспечении защиты прав женщин.

**Ключевые слова:** права женщин, гендерное равенство, международное право, конвенция CEDAW, охранный ордер, национальное законодательство, права человека.

PROTECTION OF WOMEN'S RIGHTS

Annotation: This article provides a scientific analysis of the international and national legal foundations for the protection of women's rights. The study examines the historical development of women's rights and highlights the significance of international legal instruments adopted by the United Nations, particularly the Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women (CEDAW). In addition, the article analyzes the legal framework of the Republic of Uzbekistan aimed at ensuring women's rights, mechanisms for protecting women from harassment and violence, and the legal nature of the protection order institution. The research emphasizes the importance of the interaction between international standards and the national legal system in ensuring the protection of women's rights.

**Keywords:** women's rights, gender equality, international law, CEDAW Convention, protection order, national legislation, human rights.

Bugungi kunda ayollar huquqlarini ta'minlash inson huquqlari tizimining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jamiyatda ayollar va erkaklar o'rtasida tenglikni ta'minlash, ayollarning ijtimoiy, siyosiy hamda iqtisodiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish zamonaviy davlatlarning asosiy vazifalaridan biridir. Ayollar huquqlarini himoya qilish masalasi nafaqat milliy darajada, balki xalqaro miqyosda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli xalqaro tashkilotlar tomonidan ayollarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan ko'plab hujjatlar qabul qilindi. Xususan, 1979-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan "Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiya (CEDAW)"[1].

Mazkur hujjat ayollar huquqlarini himoya qilish sohasidagi muhim xalqaro hujjat hisoblanadi. O'zbekiston ham ushbu konvensiyani ratifikatsiya qilib, ayollar huquqlarini ta'minlash bo'yicha qator islohotlarni amalga oshirmoqda.

Ayollar huquqlari masalasida tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lib kelgan. Qadimgi davrlarda ayollarning huquqlari ko'pincha cheklangan bo'lib, ular siyosiy hayotda deyarli ishtirok eta olmagan. Masalan, qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida ayollar asosan oilaviy hayot bilan shug'ullangan va ijtimoiy qarorlar qabul qilish jarayonlarida qatnashmagan.

XX asrga kelib ayollar huquqlarini himoya qilish xalqaro miqyosda muhim masalaga aylandi. 1975-yilda Mexiko shahrida o'tkazilgan xalqaro ayollar konferensiyasi gender tengligi masalasini global darajada muhokama qilish uchun muhim qadam bo'ldi[2]. Keyingi yillarda Kopengagen va Nayrobi shaharlarida o'tkazilgan konferensiyalar ham ayollar huquqlarini kengaytirish va ularning jamiyatdagi rolini mustahkamlashga xizmat qildi.

Ayollar huquqlarini himoya qilish bo'yicha eng muhim xalqaro hujjatlardan biri

CEDAW Konvensiyasi hisoblanadi. Ushbu hujjatda ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish va ularning teng huquqlarini ta'minlash zarurligi belgilangan[5].

Dunyoning ko'plab rivojlangan davlatlarida ayollar huquqlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratiladi. Masalan, Skandinaviya davlatlari, xususan Shvetsiya va Norvegiyada gender tengligi siyosati davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida amalga oshiriladi. Bu davlatlarda ayollarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi ishtiroki yuqori darajada ta'minlangan.

Yevropa mamlakatlarida ayollarni zo'ravonlikdan himoya qilish bo'yicha maxsus markazlar, ishonch telefonlari va ijtimoiy xizmatlar keng yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, jabrlangan shaxslarni vaqtinchalik boshpana bilan ta'minlash tizimi samarali faoliyat yuritadi. Mazkur tajribalar ayollar huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, xalqaro tajribani o'rganish va uni milliy amaliyotga moslashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, BMT tomonidan ishlab chiqilgan Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida ham gender tengligini ta'minlash muhim vazifa sifatida belgilangan. Ushbu maqsadlarning beshinchi yo'nalishi ayollar va qizlarning huquqlarini kengaytirishga qaratildi[3].

Ayollar huquqlarini himoya qilish masalasi O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Davlat gender tengligini mustahkamlash, ayollarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, ularni zo'ravonlikdan himoya qilish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ayollar va erkaklar qonun oldida teng huquqlarga ega ekanligi belgilangan. Bu tamoyil gender adolatini ta'minlashning asosiy huquqiy poydevorini tashkil etadi[4].

Milliy qonunchilik esa gender tengligi va ayollar huquqlarini himoya qilishni mustahkamlash uchun qo'shimcha mexanizmlar yaratgan. 2019-yilda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonun[6] ayollar va erkaklar o'rtasidagi teng huquqlarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Ushbu qonun orqali jamiyatda ayollarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish, ularning huquqiy qatlamini himoya qilishga qaratilgan kafolatlar belgilanadi.

Shuningdek, "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun[7] esa ayollarni oilada va jamiyatda zo'ravonlikdan himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini mustahkamlaydi.

Davlat bu yo'nalishda yirik qadam tashlab, 2023-yilda oilaviy zo'ravonlikni jinoyat deb e'tirof etuvchi norma joriy etildi. Endilikda zo'ravonlik, shu jumladan iqtisodiy, psixologik va jismoniy tazyiq kabi harakatlar uchun jinoyat va ma'muriy javobgarlik belgilandi, ayollar va bolalar uchun himoya orderlari muddati uzaytirilgan.

Bu bilan O‘zbekistonni mintaqada oilaviy zo‘ravonlikni alohida jinoyat sifatida tan olgan davlatlar qatoriga qo‘shdi.

Shuningdek, tazyiq yoki zo‘ravonlikdan aziyat chekkan ayollar uchun Respublika miqyosida markazlar, chaqiriqlarni qabul qiluvchi qisqa raqamli Call-markazlar tashkil etildi, ularning xizmatlari orqali jabrlangan ayollar darhol yordam so‘rashi mumkin.

Davlat sudlari ham jabrlanuvchilarga himoya orderlarini berish jarayonini soddalashtirdi va himoya choralari kuchaytirdi. O‘zbekiston 1995-yilda ayollarga nisbatan barcha shakldagi diskriminatsiyani bartaraf etishga qaratilgan BMT konvensiyasiga (CEDAW) qo‘shilib, xalqaro majburiyatlarni qabul qilgan. Bu xalqaro standartlar asosida milliy qonunlar va strategiyalar shakllantirilmoqda, gender tenglikni ta‘minlash, zo‘ravonlikni oldini olish va jamiyatda adolatni mustahkamlash choralari yanada kuchaytirishga yo‘naltirilgan.

Himoya orderi bu tazyiq va zo‘ravonlikdan aziyat chekayotgan shaxslarni qonuniy himoya qilishga qaratilgan muhim huquqiy vositadir. Ushbu Institut 2019-yilda qabul qilingan qonun doirasida joriy etilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi jabrlanuvchilarning xavfsizligini ta‘minlash va zo‘ravonlik holatlarining takrorlanishining oldini olishdir.

Himoya orderi shuningdek, oilaviy va jismoniy zo‘ravonlikning turli shakllariga qarshi tezkor choralarni tatbiq etish imkonini beradi. Jabrlanuvchi ushbu order orqali o‘zini xavfsiz muhitda his qilishi, xavfli shaxsdan uzoqlashishi va zarur bo‘lsa, vaqtincha yashash joyini o‘zgartirishi mumkin. Shu tariqa, himoya orderi nafaqat huquqiy himoya, balki psixologik barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiluvchi samarali mexanizm hisoblanadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ayollar huquqlarini himoya qilish va tazyiq hamda zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, mamlakatda ayollarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarini aniqlash va ularni himoya qilish bo‘yicha maxsus mexanizmlar joriy etilgan. Masalan, 2023-yilda O‘zbekistonda 21 871 nafar ayolga himoya orderi berilgan bo‘lib, ularning qariyb 85 foizi oiladagi zo‘ravonlik holatlari bilan bog‘liq bo‘lgan. 2024-yilda esa ichki ishlar organlari ma‘lumotlariga ko‘ra, 54 mingdan ortiq ayolga himoya orderi rasmiylashtirilgan, bu ayollarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimi tobora kengayib borayotganini ko‘rsatadi. 2025-yilning birinchi yarmida mamlakat bo‘yicha 48 303 ta ayollarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holati qayd etilgan, shuningdek 41 mingdan ortiq himoya orderi rasmiylashtirilgan. Shu davrda yuzlab ayollar va ularning farzandlari rehabilitatsiya markazlariga joylashtirilib, ularga psixologik va huquqiy yordam ko‘rsatilgan[8].

Mazkur statistik ma‘lumotlar ayollarni zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimi tobora takomillashib borayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ayollar huquqlarini ta‘minlash va gender tengligini mustahkamlash borasida yana ham tizimli choralar ko‘rish

zarurligini ham ko'rsatib beradi.

Ayollar huquqlarini yanada samarali himoya qilish maqsadida bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Avvalo, ayollarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan targ'ibot va ta'lim dasturlarini kengaytirish zarur. Shu bilan birga, zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha profilaktik ishlarni kuchaytirish, ayniqsa yoshlar o'rtasida gender tengligi madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, jabrlangan ayollarni qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish, reabilitatsiya markazlari faoliyatini kengaytirish hamda himoya orderi institutini takomillashtirish ayollar huquqlarini himoya qilish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ayollar huquqlarini himoya qilish bugungi kunda inson huquqlari tizimining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Milliy qonunchilik va xalqaro huquqiy hujjatlar ayollarning teng huquqlarga ega bo'lishini ta'minlash, ularni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotda faol ishtirok etishga rag'batlantirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasida ham ayollarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash va gender tengligini amalga ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar va huquqiy tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, ayollar huquqlarini himoya qilish tizimi mamlakatda adolatli va barqaror jamiyatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi Konvensiya (CEDAW), 1979.
2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ayollar konferensiyasi materiallari, Mexiko, 1975.
3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs), 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi -T. 2023.
5. Yuldasheva G., G'afurova N. Inson huquqlari. – Toshkent, 2023.
6. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, 2019.
7. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, 2019.
8. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi <https://lex.uz>